

*Najmiddinova Sarvara Samariddinova*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona Mintaqaviy filiali talabasi*

*[najimiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimiddinovasarvara@gmail.com)*

## FARG'ONA-TOSHKENT MAQOMLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, Farg'ona-Toshkent maqomlari va ular orasida yirik ashulalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona-Toshkent, maqom, ashula, cholg'u, Chorgoh.

O'zbek mumtoz musiqasining bir bo'lagi bo'lgan maqomlar xalq orasida keng tarqalgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysida va Toshkentda 19-20-asrlardan boshlab turkumli va turkumsiz ashulalar shakllana boshlagan. Farg'ona-Toshkent maqomlari va maqom yo'llari 2, 3, 5 va 7 qismli turkumlarni tashkil etadi. Ularning har biri ma'lum shoxobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi. Farg'ona-Toshkent maqomlari orasida yirik ashula turkumlari: Bayot I-V, Chorgoh I-V, Gulyor-Shahnoz, Dugoh-Husayniy I-VII (ularning har bir qismi umumtartib soni raqamlari bilan belgilanadi, Gulyor-Shahnoz maqomidan tashqari), masalan, Bayot 1, Bayot 2, Bayot 3, Bayot 4, Bayot 5. Yirik maqom cholg'u yo'llari orasida turkumli (yakkasoz yoki cholg'u ansambli jrosida); Chorgoh I-V; Miskin I-VII, Nasrullohi I-III, Navro'zi ajam taronalari I-III; Hojiniyoz I-II, surnay maqom yo'llari va b. Bulardan tashqari, alohida ashula va cholg'u maqom asarlari hamda yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan ashula, katta ashula va cholg'u yo'llari asosida "Shashmaqom"ning sho'ba va shoxobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan. Masalan, Yovvoyi chorgoh, Yovvoyi ushshog, Yovvoyi tanovar (ashula va cholg'u yo'llari), Cho'li frog, Toshkent Trog'i, Qo'qon Irog'i, Samarqand yoki Hoji Abdulaziz Ushshog'i, Toshkent yoki Mulla To'ychi Ushshog'i, Xo'jand yoki Sodiron hofiz Ushshog'i va boshqalar.

Farg'ona-Toshkent maqomlari "Shashmaqom" ashula bo'li-mining sho'ba, shoxobcha va taronalarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan. Birinchi qism - Sarahbor negizida, ikkinchi qism - uning taronasi yoki nasr asosida, uchinchi qism - savt, to'rtinchi qism qashqarcha va beshinchi qism - soqiynoma yoki ufar asosida.

Bayot, Chorgoh va Dugoh-Husayniy maqomlari "Shashmaqom"ning shu nomlar bilan atalgan sho'balari ("Navo" va "Dugoh" maqomlari) asosida yaratilgan bo'lib, Gulyor-Shahnoz esa turli maqom sho'balari ("Segoh" va "Rost" maqomlari) asosida yuzaga kelgan (ushbu maqomning beshta qismi o'z nomiga ega: Gulyor, Shahnoz, Chapandozi Gulyor, Ushshoq va Ufari Gulyor deb ataladi).

Gulyor-Shahnoz maqomi o'z tuzilishi jihatidan boshga turkumlardan tubdan farq qiladi. Lekin Gulyor-Shahnozning shoxobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llaridir. Ular jozibali, yoqimli ham ta'sirchan ohanglarga boy. "Chorgoh" maqom turkumi besh qismli bo'lib, "Shashmaqom" - ning Dugoh maqomi sho'balari asosida yaratilgan. Chorgoh 1 o'zining ulug' vorligi, yogimlilik bilan Dugoh sarahbori kuy shakli sifatida yuzaga kelgan; lekin kuy rivoji gisqartirilgan va unga ma'lum o'zgarishlar kiritilgan. Daromaddan avjga (Muhayyari Chorgoh namudi saqlangan) kuy yo'nalishi va harakati sarahborga o'xshash (doira usuli, sur'ati, she'r vazni saqlangan). Chorgoh 2 tarona uslubida Chorgoh savti variantidir. Chorgoh 3 - Chorgoh savtisi asosida aytiladi, ammo uning doira usuli va shakli sodda-lashtirilgan. Chorgoh 4 - Chorgoh savti qashqarchasi ko'rinishida bo'lib, kuy mavzusi, shakli va doira usuli saqlangan. Chorgoh 5 - ufar doira usulida bo'lib, uning sur'ati ancha sustlashtirilgan. Lekin ijro uslubi o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Madrimov B. X. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent-2018. 59-betlar



Mumtoz maqomlar haqida soʻz borarkan, shuurimizda, tabiiyki, bu bebaho qadriyatning bizgacha yetib kelishida yaqin oʻtmishdagi murakkab shart-sharoitlarda maʼnaviy jasorat va jonbozlik koʻrsatgan ustoz sanʼatkorlarning siymosi gavdalanadi. Bu oʻrinda xalqimizning ardoqli farzandi, Rajabiylar sulolasining yirik namoyandasi, atoqli bastakor, xonanda va sozanda, Oʻzbekiston xalq artisti-ti, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) siymosi alohida ehtirom tuygʻularini uygʻotadi. Zero, ulugʻ ustoz hayoti va ijodiy faoliyatida bugungi avlodlar uchun koʻp va xoʻp ibratli namunalar bor. Avvalambor, alohida isteʼdod sohibi boʻlgan Yunus Rajabiyning shogirdlik maqomidagi intilishlari eʼtiborlidir. Masalan, maqomlarni oʻrganishdagi dastlabki saʼy-harakatlari Fargʻona-Toshkent yoʻllari bilan bogʻliq yuzaga kelgan ekan, bu yoʻlda oʻsha davrning eng koʻzga koʻringan ustozlari – Mirza Qosim hofiz, Mulla Toʻychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Inogʻomjon hofiz va Ilhom hofizlarga shogirdlik axloq-odobi doirasida hurmat-ehtirom koʻrsatib, ulardan zarur kasbiy saboq bilan birga ijobatli duolarini ham olish baxtiga musharraf boʻladi. Ayni vaqtda doim ilmga chanqoq va sanʼatga ixlosi baland Yunus Rajabiy salobatli Buxoro Shashmaqom turkumini ham mukammal amaliy oʻrganishga astoydil bel bogʻlaydi. Samarqandda atoqli sanʼatkorlar – Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov, Mixoel Tolmasov, Gavriel Mullaqandov bilan uchrashib, ulardan Shashmaqomning samarqandcha yoʻllarini oʻrganadi. Shu bilan kifoyal olmay, Shashmaqom vatani boʻlgan Buxoroga borib, u yerda Ota Jalol, Ota Gʻiyos, Usta Shodi, Qori Kamol, Abdusamad Begijon, Qori Najm, Domla Halim Ibodov kabi maqom ustozlaridan saboq oladi. Shu asnodda mumtoz maqomlarning Samarqand-Buxoro va Toshkent-Fargʻona anʼanalarini mukammal egallagan Yunus Rajabiy hayratomuz ishlarni amalga oshirishga muyassar boʻlgan edi.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/uz/news/maqomlarimiz-jon-ozigi-ruh-quvvati-bolib-yangrasin>



Umuman olganda, maqom o'zbek san'atining ziynati hisoblanadi. Shuningdek, Toshkent-Farg'ona maqomlari ham bugungi kun yoshlari uchun hazinadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madrimov B. X. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent-2018.
2. Иброхимов О. Макам и космос. —Ташкент: Санъат, 2010.
3. 3. Иброхимов О. Фергана-Ташкентские маками. -Ташкент:
4. Медиа Ланд, 2006, 175 с.
5. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsi-
6. yalar) -Toshkent: O'ZR XT o'quv metodik markazi, 1994, 62-b.
7. 5. Ibrohimov O. Maqom va makon. -Toshkent: Movarounnahr,
8. 1996, 96-b.
9. 6. История узбекской советской музыки. Вип. 1. -Ташкент: изд. им. Г.Гуляма, 1972, 210